

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QITUVCHINING O'RNI VA MAS'ULIYATI

Taniyeva Mashhura Shuhrat qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqih talabasi

Norova Gulsanam Maxsutovna

Ilmiy rahbar: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

Annotatsiya: Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi jamiyatning kelajagini shakllantiruvchi muhim shaxs hisoblanadi. Ushbu mavzuda boshlang'ich sinf o'qituvchisining ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni, pedagogik mahorati, kasbiy kompetensiyasi hamda ma'naviy-axloqiy mas'uliyati yoritiladi. Shuningdek, o'qituvchining o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashdagi vazifalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zi: Boshlang'ich ta'lim, o'qituvchi, pedagogik mahorat, kasbiy kompetensiya, ta'lim-tarbiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya, innovatsion texnologiyalar, individual yondashuv, mas'uliyat, o'quvchi shaxs

Аннотация: В начальном образовании учитель является ключевой формирующей будущее общества. В данной работе раскрываются роль учителя начальных классов в учебно-воспитательном процессе его педагогическое мастерство профессиональная компетентность

Ключевые слова: Начальное образование учитель педагогическое мастерство профессиональная компетентность

Annotation: In primary education, the teacher is a key figure in shaping the future of society. This work highlights the role of the primary school teacher in the educational process, their pedagogical skills, professional competence, and moral responsibility.

Keywords: Primary education, teacher, pedagogical skills, professional competence, educational process, moral education, innovative technologies

KIRISH

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni va mas'uliyatiga quyidagilar kiradi:

O'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish. O'quvchilarda ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli qarash va kasb tanlash ko'nikmalarini shakllantirish. O'quvchilarda o'qish, o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni davom ettirish va dars davomida shakllangan motivlarni davom ettirish.

O'quvchilarning qobiliyatlari bilan ijodiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olish. O'quvchilarda ijodiy faoliyatning o'sishini pedagogik tamoyillarga asoslanib ta'minlash. O'quvchilarda mustaqillikni tarbiyalash. O'quvchilarda shaxsiy sifatlarni shakllantirish. O'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarning asoslarini shakllantirish. Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor

qaratish har qachongidan ham muhimdir. “Aynan ta’lim va ma’rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da’vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo’lishga undaydi.” O’zbekistonda mustaqil va kuchli davlat qurishdan asosiy maqsad inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadigan va hurmat qilinadigan adolatli jamiyat barpo etishdir. Bu, avvalambor, ta’lim va ma’rifat tizimini takomillashtirish, mamlakatimiz kelajagi bo’lgan yoshlarni zamonaviy bilim olishga yo’naltirish, barkamol shaxsni tarbiyalash bilan bog’liq ekanini biz yaxshi anglaymiz. 1997 yilda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va boshqa davlat dasturlarining hayotga tatbiq etilishi samarasida mazkur soha tubdan isloh qilindi, zamonaviy uzluksiz ta’limtarbiya tizimi yaratildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda yoshlar haqida e’tibor va g’amxo’rlik ko’rsatishga davlat siyosatining eng asosiy va ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida qarab kelinmoqda. Chunki yoshlar – bizning kelajagimiz. Bu sohadagi davlat siyosatini yanada chuqurlashtirish uchun yaqinda O’zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Bularning barchasi bugungi kunda o’z samarasini bermiqda. Yoshlarimiz biznes, ilm-fan, madaniyat, san’at, adabiyot va sport sohalarida olamshumul muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Bu mamlakatimiz istiqboliga, buyuk ajdodlarimiz boshlagan ezgu ishlarni kelajak avlodlar munosib davom ettirishiga katta ishonch bag’ishlaydi. Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiki boyliklarni, bilimlarni o’rganish, o’zlashtirish va rivojlantirish vazifasi turadi. Hayot taraqqiyoti va jamiyat rivojini shusiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Ushbu vazifani bajarish uchun yoshlarimiz ajdodlarimiz merosini ular qoldirgan manbalar orqali o’rganishlari, ko’proq kitob o’qishga, bilimlarni asl manbalardan oliishga harakat qilishlari zarur.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yilning 12 yanvar kuni “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ’ibot qilish bo’yicha komissiya tuzish to’g’risida”gi farmoyishi² bu mavzuning dolzarb ekanligini tasdiqlaydi. Maktab o’quvchini o’qish malakasi bilan qurollantirish bilan bir qatorda kitobni mustaqil o’qiy oladigan, uni tushunadigan, ma’lum bir mavzuga oid kitoblarni tanlay oladigan, gazeta va jurnallarni ham mustaqil o’qiydigan faol kitobxonni tarbiyalaydi. Shu jihatdan sinfdan tashqari o’qish tarbiyaning asosiy quroli sifatida xizmat qiladi, ko’p narsani bilishga havasni oittiradi.

O’zbek xalqining boy madaniy me’rosi bo’lmish xalq og’zaki ijodi namunalari kichik maktab yoshidagi kitobxonlar uchun ulkan ma’naviy-ma’rifiy manba hisoblanadi. Xalq ertaklari bu o’rinda alohida ahamiyatga ega. Mana shu asarlar yordamida o’quvchilarda tarbiyaviy jihatlarni takomillashtirib borish zarur. Sinfdan tashqari o’qish darslariga to’laqonli dars sifatida qaralib, o’tilgan asar yuzasidan suhbat, viktorinalar o’tkazish, asarni tahlil qilish, g’oyasini ochib berish, qahramonlarning hatti-harakatlarini muhokama qilish; bular asosida vatanparvarlik, do’stlik, mehnatsevarlik, insonparvarlaik g’oyalarini o’quvchilar ongiga singdirib borish zarurligi bizning mavzuimizning dolzarbligini belgilab beradi. Mavzuning dolzarbligi:

O’qitish darslari fan o’qituvchilari tomonidan puxta o’ylangan, ma’lum tizimga solingan, o’quvchilar aqliy bilimlarini charxlaydigan bo’lishi lozim. Zotan, “Milliy dastur”da

ko'zda tutilgan asosiy masala – O'zbekistonning kelajagi bo'lgan barkamol avlod, komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish jamiyatning oldida turgan muhim vazifadir. “To'qqiz yillik (1-9- sinflar) o'qishdan iborat umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Ta'limning bu turi boshlang'ich ta'limni (1-4-sinflar) qamrab oladi hamda” o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojlari, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini mehnat “ ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashni shakllantiradi.

Kelajagimiz bo'lgan yosh avlod bilim egallashda boshlang'ich ta'limda o'tiladigan fanlarni chuqur, ongli tarzda o'zlashtirishlari muhim sanaladi. Shunday ekan, bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda boshlang'ich ta'limdagi fanlarni o'tishda jahon andozalariga mos va xos bo'lgan o'qitish usullaridan foydalanish muhimdir. Kurs ishining maqsadi: Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini samarali tashkil etish jarayonida o'qish darslarining maqsadi va vazifalarini, tizimini, davlat ta'lim standartlari tomonidan o'qish darslariga qo'yilgan talablarni o'rganib chiqdik va o'z ishimizda bayon etdik. Biz ushbu mavzuni yoritishda, malakaviy amaliyotda o'tagan tajribamizga suyanib, 4-sinf maktab o'quvchilarida o'tkazilgan dars jarayoni grammatik mashqlarni bajarish va tashkil etishga oid fikrlarimizni bayon qilamiz. Kurs ishini yozishda asoslangan materiallar : Ushbu ishni yozishda Prezidentimiz I.A.Karimovning qator asarlari, xususan, “Yuksak ma'naviyat –“ yengilmas kuch”, singari asarlaridan, shuningdek, Yusupov M., Mahmudova M., Rahmonbekova S., Qosimova K., Matchonov S., Gulomov M., Solihov O. singari olim va metodistlarning asarlaridan, ilmiy tadqiqot, monografiya va maqollaridan foydalanib ish ko'rdik. Kurs ishning yozilishida qo'llanilgan metod : Albatta, ona tili darslari va mashg'ulotlar o'qituvchi tomonidan uning rahbarligida o'tkaziladi. Bu o'z navbatida, o'qituvchi tomonidan puxta o'ylangan, rejalashtirilgan, ma'lum tizimga solingan va mazmunli bo'lishi talab qilinadi. Biz mazkur bitiruv “ ishimizni olgan bilim va tajribamizga tayangan holda, shuningdek, pedagogik amaliyot o'tgan Samarqand tumanidagi 46-umumta'lim maktabidagi o'qituvchilarning ish tajribasiga suyanan holda yoritishga harakat qildik. Kurs ishning ilmiy yangiligi : Darhaqiqat, ona tili darslari orqali o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik “ texnologiyalardan foydalanish o'z navbatida yangilik sanaladi. Chunki, ona tili darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish boshlang'ich sinf ASOSIY PEDAGOGIK TUSHUNCHALAR

Pedagogikada «tarbiya» so'zi turli ma'noda ishlatiladi. Chunonchi, tarbiya keng sotsial ma'noda, ijtimoiy hodisa sifatida qo'llanilganda jamiyatning barcha tarbiyaviy vositalarini: oilani, maktabgacha tarbiya muassasalarini, o'quv-tarbiya muassasalarini, mehnat jamoalari, axborot manbalarining tarbiya yo'nalishida olib boradigan harakatlarini o'z ichiga oladi. Bu tarbiya vositalari o'sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi.

Pedagogik adabiyotlarda va amaliyotda «tarbiya» so'zi aniq, tor yo'nalishni belgilash uchun ham ishlatiladi. Xuddi shu ma'noda tarbiyachi rahbarligida aniq maqsadga qaratilgan jarayon tushuniladi.

O'qitish - o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati va bu jarayonda bolalarning ma'lumot olishi, o'quv ko'nikma va malakasini egallashi, tarbiyalanib, rivojlanib borishi nazarda tutiladi.

Ma'lumot-bunda nafaqat o'qitish, balki mustaqil bilim olish, ommaviy axborotlar ta'sirida bo'lish bilan birga, insonning ilmiy tizimni egallashi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirishi ko'zda tutiladi.

Inson kamoloti - bu insonning keng ma'noda ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanish jarayonidir. Bu jarayonda tarbiyaning muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.

Insonning shakllanishi - bu insonning hayot yo'li davomida rivojlanishining o'ziga xos shakli bo'lib, maxsus olib boriladigan tarbiyaviy ta'sir natijasi hisoblanadi.

Xulosa:

Boshlang'ich ta'limda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchi shaxsini shakllantiruvchi, uning dunyoqarashi va ma'naviy qiyofasini rivojlantiruvchi yetakchi shaxsdir. Aynan boshlang'ich bosqichda qo'yilgan mustahkam poydevor keyingi ta'lim jarayonining samaradorligini belgilaydi. Shu bois o'qituvchining kasbiy mahorati, pedagogik savodxonligi, sabr-toqati va yuksak mas'uliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pedagogika-oliy ta'lim muassaslari uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti 2018
2. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi- Toshkent: Fan va texnologiya, 2020
3. Pedagogik mahorat- Toshkent: O'qituvchi 2019.